



**MAKTABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI BOLALARNI TARBIYALASHDA
TASVIRIY FAOLIYAT MASHG'ULOTLARINING TUTGAN O'RNI**

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi
2-bosqich talabasi talabasi
Shavkatova Mufiza

Doi: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15233189>

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni tarbiyalashda tasviriy faoliyat mashg'ulotlarining tutgan o'rni va uning imkoniyatlari nazariy jixatdan yoritilgan.

Kalit so'zlar: Maktabgacha talim, oila, rivojlantirish, estetik tarbiya, estetik tasavvur, tasviriy faoliyat, mashg'ulot, shakllantirish.

Insonning komillik darajasiga yetishishida, ijodiy fikrlay oladigan, barkamol shaxs bo'lib shakllanishida tasviriy san'at fanining o'rni, o'ziga xos roli mavjudki, bu mavjudlikni badiiy qurish-yasash turini yana ham boyitadi. Bugun tasviriy san'at fani yosh avlodni estetik tarbiyalash bilan birga, Yurtga muhabbat, ma'naviy, madaniy merosimizdan faxrlanish, mutaqilligimizni turli tahdidlardan asrash va mustahkamlash, milliy an'analar, qadriyatlar ruhida tarbiyalash, milliy o'zlikni anglash, ma'naviyat tarbiyasini o'z ichiga oladi va tasviriy san'at ta'limi vositasida oliy tuyg'ularni o'quvchilar ongiga singdiradi.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan o'zgarishlar jamiyatimizni iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy jihatdan jahonning eng rivojlangan mamlakatlari qatoridan o'rin olishda o'zining ijobiy natijalarini bermoqda. Yoshlarni badiiy jihatdan voyaga etkazishda tasviriy san'at fanini yaxshiroq o'rganish maqsadida uni boshqa fanlar yordamida tushuntirishga harakat qiladi. Chunki bu fan barcha fanlar bilan chambarchas bog'langanligidandir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016- yil 29-dekabrda "2017 -2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ 2707- sonli qarorida bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlarini tadbir etish, bolalarni har tomonlama, intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish kabi vazifalar belgilab qo'yildi.

Maktabgacha ta'limning vazifasi bolalarni xalqning boy milliy, madaniy-tarixiy merosi va ma'naviy, axloqiy jihatdan tarbiyalash: bolalarda milliy vatanparvarlik hislarini shakllantirish, maktabgacha yoshdagi bolalarda bilim olish ehtiyojini, o'qishga intilish moyilliklarini shakllantirib, ularni muntazam ravishda ta'lim jarayonlariga tayyorlash, bolaning tafakkurini rivojlantirish, o'zining fikrini mustaqil va erkin ifodalash malakalarini shakllantirish, bolaning jismoniy va ruhiy sog'ligini ta'minlashdan iborat.

Asosiy maqsadlardan yana biri, tasviriy san'at orqali bolalardagi qobiliyat hamda imkoniyatlarini aniqlab, ularni to'g'ri shakllantirish va yuzaga chiqarishdir. Rasm, applikasiya, loy ishlari jarayonida bolada fikr yuritishning analiz, sintez, takrorlash, konkretlashtirish kabilar shakllanadi. Bundan tashqari, bu jarayonda bolalar jamoada ishlashga o'z harakatlarini o'rtoqlarining harakatlariga bo'ysundirishga o'rganadilar.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tasviriy faoliyat mashg'ulotlari bolalarda zarur bo'lgan, malaka, ko'nikmalarni shakllantiradi. Tasviriy faoliyat o'z xususiyatiga ko'ra badiiy faoliyat hisoblanadi. Badiiy faoliyat mashg'ulotlarining barcha turlari bolalarda go'zallikni bilish uchun keng imkoniyatlar ochib beradi.

Tasviriy faoliyat mashg'ulotlari jarayonida:

- Fantaziya, ijodiy fikrlash va tasavvur qilish, idrok qilishni
- Qo'lning aniq harakatlari va barmoqlarining mayda motorikasini rivojlantirish
- Badiiy didni tarbiyash



- Amaliy badiiy faoliyat va malakalarni rivijlantirish kabi ta'limiy va tarbiyaviy masalar hal etib boriladi .

Bolalar bilan olib boriladigan tasviriy mashg'ulotlarda, qalam hamda mo'yqalamdan erkin foydalanishga o'z xarakterini va qo'l kuchini idora etishga o'rganadilar.

Bu esa bolalarda qo'lni yengil, erkin bir tekisdagi xarakter qilish xususiyatlarini rivojlantiradi. Tasviriy faoliyat mashg'ulotlarida geometrik shakllarini topa olishga yoki ko'ra olishga, ularni kengligi, uzunligi, kattaligi, balandligi, fazoviy joylashishi bilan tanishishini bolaning maktabning 1-sinfda elementar matematik tushinchalarni puxta egallashga yordam beradi. Qurilish – yasash mashg'ulotlari bolalarda ko'z bilan chamalshni shakllantiradi va bolalarni maktabdagi texnik darslarni o'zlashtirishga yordam beradi .

Shunday qilib, tasviriy faoliyat mashg'ulotlartida bolalarda badiiy did va qobiliyatlar o'sadi va bu orqali maktabda o'qishga tayyorlanib boradi .

Chunki bolalar predmetlar bilan uzviy bog'lanadilar , ularning rangi, shakli katta-kichikligi bilan tanishadilar. Ularning farqini o'xashlarini aniqlaydilar, bu esa bolalarni fikr yuritishga, tarbiyalashga astoydil yordam beradi.

Bu esa hozirgi davrda asosiy diqqat-e'tibor tarbiyalanuvchilarga tasviriy san'at vositasida badiiy tarbiya berish va nafosat tarbiyasini rivojlantirish jarayoniga qaratilmoqda. Ularning nafosat tarbiyasining o'ziga xos ma'suliyati hamda badiiy ma'lumotni o'zgarib, boyib borayotgan mazmuni bilan bog'lash joizdir. Tarbiyalanuvchilarni nafosat tarbiyasini shakllantirishda tasviriy san'atning roli nihoyatda kattadir. Biz pedagoglar oldimizdagi ushbu muhim ma'suliyatni to'laqonli anglagan xolda harakat qilishimiz, intilishimiz, tarbiyalanuvchilarda borliqqa, tabiatga nisbatan ijobiy qarashlarni shakllantirishga harakat qilmog'imiz darkor.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. "Bolalarni sahnalashtirish va ijodiy faoliyatga o'rgatish" o'quv-uslubiy majmua Abdullajonova D. Andijon, 2024;
2. Maktabgacha pedagogika Esonova M.A. Toshkent 2023 yil;
3. Maktabgacha ta'lim-tarbiyani tashkil etish. Oxunov I.A. Andijon 2024 yil;
4. Maktabgacha pedagogika Qodirova F.R, Toshpo'latova SH.Q, Kayumova N.M, A'zamova M.N. Toshkent-2019;
5. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi 2022 yil;
6. Sodiqova Sh.A. "Maktabgacha pedagogika". "Tafakkur sarchashmalari" T.: 2013 y.- 288 bet.
7. Xoliqov. A.A. Pedagogik mahorat. Darslik. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. – T.: Iqtisod-moliya, 2011 y. -420 bet.

Internet saytlari:

8. <https://nauchniyimpuls.ru/index.php/ni/article/view/2002/1533>;
9. <https://intereuroconf.com/index.php/APSEFMCH/article/view/5620/4110>.
10. <https://cyberleninka.ru/article/n/maktabgacha-ta-lim-yoshdagi-bolalarning-ijodiy-qobiliyatlarini-rivojlantirishda-ta-limiy-muhitni-tashkil-etishning-o-ziga-xosligi/viewer>